



ISSN 2181-9599

Doi Journal 10.26739/2181-9599

ЎТМИШГА НАЗАР

9 ЖИЛД, 4/2 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ

ТОМ 9, НОМЕР 4/2

LOOK TO THE PAST

VOLUME 9, ISSUE 4/2



ТОШКЕНТ-2026

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Муртазаева Рахбар Хамидовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:

Джураева Нилуфар Далибаевна
тарих фанлари номзоди, профессор,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, академик,
Ўзбекистон Миллий университети

Бобожонова Дилором Бобожонова
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

Юнусова Хуршида Эркиновна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Аширов Адхам Азимбаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
ЎзР. ФА. Тарих институти

Агзамова Гулчехра Азизовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
ЎзР. ФА. Тарих институти

Бурдиашвили Майя
тарих фанлари доктори (DSc),
Телави давлат университети

Кожакеева Ляззат Темировна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Хотин-қизлар давлат педагогика университети

Аминова Азиза Марковна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Навоий давлат педагогика институти

Ульжаева Шохистахон Мамажоновна
тарих фанлари доктори (DSc),
Тошкент ирригация ва кишлок хужалигини механизациялаш мухандислари институти Миллий тадқиқот университети

Худайқулов Тулқин Дўстбоевич
Тарих фанлари доктори (DSc)
Шаҳрисабз дала педагогика институти

Гофоров Шокир Сафарович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Самарқанд давлат университети

Эргашева Юлдуз Алимовна
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Қариши давлат техника университети

Халикова Рахбар Эргашевна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Тошкент давлат техника университети

Ишанходжаева Замира Райимовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Эшов Боходир Жўраевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Қариши давлат университети

Махкамova Надира Рахмановна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Тошкент ахборот технологиялари университети

Кебадзе Мадонна
тарих фанлари доктори (DSc),
Телави давлат университети

Абдуллаева Яхшибека Атамуратовна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Нукус давлат педагогика институти

Мустафаева Нодири Абдуллаевна
тарих фанлари доктори (DSc),
Ўзбекистон Фанлар академияси

Ермегов Аваз Абдуллаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Хайдаров Ғайратбек Мирзапўлатович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Андижон давлат университети

Рашидов Ойбек Расулович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Тошкент давлат иқтисодиёт университети

Расулов Абдуллажон Нуриддинович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Наманган давлат университети

Ковалев Борис Николаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Санкт-Петербург Тарих институти

Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Ауанасова Алима Мусировна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Қозогистон давлат тарихи институти

Бегалинова Калимаш Капсамаровна
фалсафа фанлари доктори (DSc), профессор,
Қозогистон Миллий университети

Хайдаров Муродилла Махмуталиевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Тожибоев Музаффар Турдибоевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
ИИВ Академияси

Алиева Лале
тарих фанлари доктори (DSc),
Озарбайжон давлат университети

Саипова Камола Давляталиевна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исмаилова Алмаз
тарих фанлари доктори (DSc),
Догистон мустақил университети

Иноятова Диларам Маниглиевна
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Таниева Гулдона Мамановна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Низомий номидаги Ўзбекистон Миллий педагогика университети

Дорошенко Татьяна Ивановна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Бабаджанова Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Ширванова Тарана Амирага кызы
тарих фанлари номзоди, доцент,
Азербайдон давлат
иқтисодиёт университети

Мирзалиев Улуғбек Бегмурзаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Гулистон
давлат педагогика институти

Нуруллаева Шоира Кушназаровна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Урганч давлат университети

Курбанов Бахтияр Журабаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Наманган давлат университети

Ҳакимова Шоира Сағдуллаевна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), UBS Тошкент филиали

Толибоева Нодира Одилжоновна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон
жаҳон тиллари университети
Масъул котиб

Теймураз Ахалмосулишвили
тарих фанлари номзоди, профессор,
Телави давлат университети

Джоробекова Айнур Эшимбековна
тарих фанлари номзоди, профессор,
Қозоғистон дипломатия академияси

Рахмонқулова Зумрад Бойхуразовна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исаков Баҳадир Нигматуллаевич
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Холмуродов Дилшод Рашидович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Жиззах давлат
педагогика университети

Юсупов Аҳмеджон Шоназарович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доценти
Urganch davlat universiteti

Тиллажаева Хуршида Джумаваевна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Тошкент давлат техника университети

Одилов Аброр Анварович
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети
Масъул котиб

Исоқов Бахтиёр Робидинович
тарих фанлари номзоди, доцент,
Наманган давлат университети

Тўхтабасв Аъзамжон Шарипхўжаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети

Халмуратов Бахтиёр Режавалиевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети

Алимардонов Отабек Қудратович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доценти
Ўзбекистон Миллий университети

Турсунова Юлдуз Бобоқуловна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
ЎзР. ФА. Тарих институти

Азаматова Гулмира Байирбековна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Jizzax davlat pedagogika universiteti

Каримжонов Жасурбек Мухторжонович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Ўзбекистон Миллий университети

МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT


1. Рахбархон Муртазаева ЭЛЕМЕНТЫ МУЛЬТИКУЛЬТУРАЛИЗМА В ГОСУДАРСТВЕННОЙ ПОЛИТИКЕ УЗБЕКИСТАНА: НОРМЫ, ИНСТИТУТЫ И ПРАКТИКИ.....	5
2. Боходир Эшов, Гайбулла Уралов ИЗ ИСТОРИИ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ВОЕННЫХ ОТНОШЕНИЙ ПРЕДСТАВИТЕЛЕЙ ДИНАСТИИ МАНГЫТОВ.....	14
3. Nilufar Djurayeva XOTIN-QIZLAR TASHKILOTLARINING SHAKLLANISH TARIXI VA ILMIY-NAZARIY ASOSLARI.....	21
4. Бекзод Пайзуллаев ОСНОВНЫЕ ТОРГОВЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ МЕЖДУ БУХАРСКИМ ЭМИРАТОМ И КОКАНДСКИМ ХАНСТВОМ.....	44
5. Farhod Usmanov O‘ZBEKISTONDA BOLALAR QAROVSIZLIGINI BARTARAF ETISHDA BOLALAR UYLARINING AHAMIYATI.....	53
6. Baxtiyor Xudoyberdiyev MALLAXON DAVRIDA QO‘QON XONLIGI VA BUXORO AMIRLIGI O‘RTASIDAGI MUNOSABATLAR.....	60
7. Azamat Abduraxmonov SURXONDARYODA MADANIY MEROS YODGORLIKLARINI ILMIY TADQIQ ETISHNING ASOSIY YO‘NALISHLARI: TARIXIY TAHLIL (XIX asrning ikkinchi yarmidan - hozirgi kungacha).....	65
8. Фаррух Акчаев ЎЗБЕКОНА МИЛЛИЙ ВА ДИНИЙ ТАРБИЯ УСУЛЛАРИНИНГ МАРОСИМЛАРДА АКС ЭТИШИ.....	72
9. Shuxrat Bozorov ALEKSANDR BYORNSNING BUXORO AMIRLIGIDAGI DIPLOMATIK VA JOSUSLIK MISSIYASI: GEOSIYOSIY MAQSADLAR VA TARIXIY TAHLIL (1832-yil).....	81
10. Татьяна Дорошенко ФОРМИРОВАНИЕ АРМИИ В.АНДЕРСА В УЗБЕКИСТАНЕ В ГОДЫ ВТОРОЙ МИРОВОЙ ВОЙНЫ.....	87
11. Наим Обломуратов СОҲИБҚИРОН МЕРОСИ ВА ЗАМОНАВИЙ ТАРИХИЙ ТАФАККУР.....	96
12. Nargiza Choriyeva SAMARQAND VILOYATINING TURIZM SALOHİYATI VA UNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI.....	104



Azamat Ostanaqulovich Abduraxmonov,
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
Tarix kafedrasini o'qituvchisi,
e-mail: azamat228410@gmail.com

**SURXONDARYODA MADANIY MEROS YODGORLIKLARINI ILMIY TADQIQ
ETISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI: TARIXIY TAHLIL (XIX asrning ikkinchi
yarmidan - hozirgi kungacha)**

For citation: Azamat O. Abdurakhmanov. KEY DIRECTIONS IN SCHOLARLY RESEARCH ON CULTURAL HERITAGE MONUMENTS IN SURKHANDARYA: HISTORICAL ANALYSIS (Second Half of the 19th Century–Present). Look to the past. 2026, vol. 9, issue 4/2.

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.19846394>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Surxondaryo viloyati hududidagi madaniy yodgorliklarni ilmiy o'rganish jarayonining shakllanishi va bosqichma-bosqich rivoji tarixiylik yondashuvida tahlil qilindi. Surxondaryoda yodgorliklarni qayd etishdan boshlab ekspeditsion qazishmalar, ilmiy maktablar va xalqaro hamkorlikka o'tish dinamikasini davrlashtirish hamda asosiy ilmiy yo'nalishlarni ajratib ko'rsatishdir. Metodologiya sifatida manbalar tahlili, tarixiy-taqqoslash, xronologik davrlashtirish va tematik tasnifdan foydalanildi. Natijada yodgorliklar tadqiqoti besh bosqichga ajratilib, Termiz arxeologik kompleks ekspeditsiyasi hamda Teshiktosh g'ori qazishmalari kabi ilmiy burilish nuqtalari, 1979-1990 yillarda tizimli ishlar va 1993-yildan bugungi kungacha MAFOuz-Baqtriya missiyasi va boshqa xalqaro dasturlar Surxondaryo arxeologiyasi va merosni boshqarishning zamonaviy bosqichi belgilab berganligi bilan asoslandi.

Kalit so'zlar: Surxondaryo, Termiz, yodgorlik, arxeologiya, tarixiylik, ekspeditsiya, Teshiktosh, Zarautsoy, MAFOuz, merosni muhofaza qilish.

Абдурахмонов Азамат Останакулович,
Термезский университет экономики и сервиса
Преподаватель кафедры истории,
e-mail: azamat228410@gmail.com

**ОСНОВНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ НАУЧНОГО ИССЛЕДОВАНИЯ
ПАМЯТНИКОВ КУЛЬТУРНОГО НАСЛЕДИЯ СУРХАНДАРЬИ: ИСТОРИЧЕСКИЙ
АНАЛИЗ (Вторая половина XIX века - настоящее время)**

АННОТАЦИЯ

В данной статье на основе историографического подхода анализируются становление и поэтапное развитие научного исследования памятников культурного наследия на территории Сурхандарьи. Цель исследования заключается в периодизации динамики

перехода от первичной фиксации памятников к экспедиционным раскопкам, формированию научных школ и развитию международного сотрудничества, а также в выделении ключевых направлений современных исследований. Методологическую основу составили анализ источников, историко-сравнительный метод, хронологическая периодизация и тематическая классификация. В результате предложено деление истории изучения памятников на пять этапов. Обосновано, что Термезская археологическая комплексная экспедиция и раскопки в пещере Тешик-Таш выступили в качестве научных «переломных» событий; показано, что системные исследования 1979–1990 гг. обеспечили преемственность и устойчивость региональных археологических работ; установлено, что с 1993 г. по настоящее время миссия MAFOuz–Бактрия и другие международные программы определили современных этапов развитие археологии региона, включая методическую модернизацию, междисциплинарность и практики управления наследием.

Ключевые слова: Сурхандарья, Термез, памятник, археология, историчность, экспедиция, Тешик-Таш, Заратсой, MAFOuz, охрана культурного наследия.

Azamat O. Abdurakhmanov,
Termez University of Economics and Service
Lecturer, Department of History,
e-mail: azamat228410@gmail.com

KEY DIRECTIONS IN SCHOLARLY RESEARCH ON CULTURAL HERITAGE MONUMENTS IN SURKHANDARYA: HISTORICAL ANALYSIS (Second Half of the 19th Century–Present)

ABSTRACT

In this article, the formation and progressive development of scholarly research on cultural heritage monuments in the Surkhandarya region are examined through a historiographical approach. The study aims to periodize the transition from the initial documentation of monuments to expedition-based excavations, the emergence of research schools, and the expansion of international cooperation, as well as to identify the key directions of contemporary research. The methodological framework includes source analysis, the historical-comparative method, chronological periodization, and thematic classification. As a result, the history of research monuments is divided into five stages. It is argued that the Termez Archaeological Complex Expedition and the excavations at Teshik-Tash Cave constituted major scholarly “turning points”; that systematic investigations conducted in 1979–1990 ensured continuity and institutional stability of regional archaeological work; and that from 1993 to the present, the MAFOuz–Bactria mission and other international programs have shaped the current stage of the region’s archaeology, including methodological modernization, interdisciplinary approaches, and heritage management practices.

Index Terms: Surkhandarya, Termez, cultural heritage site, archaeology, historicity, expedition, Teshik-Tash, Zaratsoy, MAFOuz, cultural heritage protection.

1. Dolzarblici:

Surxondaryo - O‘zbekistonning tarixiy-madaniy qatlamlari eng zich jamlangan hududlaridan biri bo‘lib, Boysun tog‘larida paleolit davri g‘orlari, Zaratsoy qoyatosh suratlari, bronza davriga oid Sopolli madaniyati manzilgohlari, antik davr va Kushon madaniyati, shuningdek islom davri shaharsozlik izlari uzviy tizimni tashkil etadi. Shu sababli mintqa yodgorliklarini o‘rganish tarixi nafaqat arxeologik ilm-fan rivoji, balki muzeylashtirish, merosni hujjatlashtirish va muhofaza qilish amaliyotlari bosqichlarini ham aks ettiradi.

Maqolaning ilmiy muammosi shundan iboratki, Surxondaryoda yodgorliklar tadqiqoti bo‘yicha alohida obyektlarga bag‘ishlangan ilmiy ishlar yetarlicha tadqiq qilingan, ularning izchil “tadqiqotlar tarixi”ni bosqichma-bosqich umumlashtirish zarurati saqlanib qolmoqda. Xususan, 1930-yillardagi ekspeditsion burilishlar, 1970–1980-yillardagi tizimli qazishmalar va

mustaqillikdan keyingi xalqaro dasturlar o'rtasidagi uzviylik hamda metodik yangilanishlarni yagona davrlashtirish doirasida ko'rsatish dolzarbdir [1].

Tadqiqotning maqsadi Surxondaryo madaniy yodgorliklarini ilmiy o'rganish tarixini davrlashtirish, har bir bosqichning institutsional (ekspeditsiya, ilmiy markaz) va metodik (qazishma, hujjatlashtirish, raqamli tahlil) xususiyatlarini aniqlashdan iborat.

2. Metodlar va o'rganilganlik darajasi:

Surxondaryo arxeologiyasi bo'yicha umumlashtiruvchi ilmiy sahifalar, ekspeditsiyalar haqidagi ma'lumotlar hamda alohida obyektlar bo'yicha maqola va hisobotlar mazmunan ajratildi. Xususan, Surxondaryo madaniy yodgorliklarini o'rganish bo'yicha adabiyotlar shartli ravishda uch qatlamga ajraladi:

Birinchi qatlam. Dastlabki ilmiy qaydlar va o'lkashunoslik davri (XIX asr oxiri – XX asr boshlari)da ayniqsa, 1820-yilda Buxorodan rus elchixonasi kotibi G. Meyendorf Orenburgdan Buxoroga qilingan sayohat tavsifida [2:C.43], 1853-yilda V. Tizengauzen [3:C.36], 1872-yil Londonda nashr etilgan ingliz geografi G. Yulning Vud safarnomasi asosida 1873-yilda yozilgan A. P. Fedchenko [4:C.53] ilmiy ishlarida, 1875 yilda Turkiston general gubernatori K.P. Kaufman buyrug'iga ko'ra Hisor tizma tog'laridan to Amudaryogacha va Ko'lob bekligigacha bo'lgan hududni chuqur o'rganish maqsadida ekspeditsiyaga rahbarlik qilgan N.A. Mayev [5:C.256], 1879 yilda "Samarqand ilmiy ekspeditsiyasi" a'zosi, geolog I. V. Mushketov, 1881-yilda fransuz sayyohi G. Bonvalo, 1890-yilda Arxeologik komissiya topshirig'iga asosan sharqshunos E. F. Kal tadqiqotlari, 1882-yilda Buxoro-Afg'oniston chegarasida joylashgan Amudaryo brigadasi qo'mondoni D. N. Logofet [6:C.85] kabi tadqiqotchilar tomonidan ilmiy muomilaga kiritilgan adabiyotlari yodgorliklarni qayd etish, ro'yxatga olish va tavsiflash xarakteriga ega.

1895-yilda Toshkentda tashkil etilgan Turkiston arxeologiya havaskorlari to'garagi yodgorliklar, qo'lyozmalar, numizmatika va etnografik materiallarni hisobga olishni tizimlashtirgan institut sifatida ko'riladi. 1895-yil oktabr oyida xizmat safari chog'ida harbiy muhandis I. T. Poslavskiy (keyinchalik Turkiston arxeologiya havaskorlari to'garagi - TAHTning haqiqiy a'zosi va rais o'rinbosari bo'lgan) kuzatishlari yuzasidan 1896-yil 26-fevral kuni TAHT yig'ilishida ma'ruza qilgan [7]. 1897-yilda Turkiston arxeologiya havaskorlari to'garagi - TAHTning a'zosi I. I. Geyerning ayrim shaxsiy kuzatishlari asosida "Turkiston bo'yicha sayohat" qo'llanmasi chop etilgan [8:C.134]. 1898-yilda M. V. Grulev rahbarligidagi harbiy razvedka yo'nalishi ma'lumotlari [9:C.33-34], 1906 yilda botanik R. Yu. Rojevits tadqiqotlarida shuningdek, 1911 yilda Sankt-Peterburgdagi ilmiy doiralarda Eski Termizga bo'lgan qiziqishning bir oz jonlanishi kuzatilgan. Sharqiy Bo'lim Yozuvlari (Записки Восточного Отдела- ЗВО)da Markaziy Osiyo tadqiqotlari, shu jumladan, arxeologik yodgorliklar, geografik va etnografik xususiyatlar va sharqiy mintaqalarga sayohat qilgan olimlarning tadqiqotlari nashr etilgan bo'lsa, mavzuga doir XX-jildining birinchi sonida, ikki yil oldin o'qilgan A. Stal' Golsteynning "Syuan-tszaning safari va arxeologik tadqiqotlar natijalari" nomli ma'ruzasi chop etilgan. 1913 yilda xizmat va ma'muriy ishlar bilan Termizda xizmat safarini o'tagan A. A. Semyonov tomonidan Termiz yodgorligi haqida na tavsif, na uning alohida binolarini sana bilan bog'liq tarzda yoritib berilmagan. 1913-yil 11-dekabr kuni o'zining safariga oid Turkiston arxeologiya havaskorlari to'garagi – (TAHT)da qilgan ma'ruzasi 1914-yilda Termizni o'rganishga qaratilgan navbatdagi va inqilobgacha bo'lgan davrdagi so'nggi urinishga turtki bo'ldi [9:C.62]. A. A. Semenov ishlari Termiz tarixini o'rganishdagi ilk ilmiy qadamlar jumlasidandir. U, asosan, Termiz sayyidlari tarixi, yodgorliklar joylashuvi va madaniy qatlamlarni aniqlashda muhim rol o'ynagan. Uning qaydlari keyinchalik bu hududni o'rganishda asosiy manbalardan biri bo'lib xizmat qilgan.

Ikkinchi qatlam. Sovet davri arxeologiyasi va "klassik" ilmiy maktab (1920–1980-yillar). Adabiyotlar bu davrda keskin professional darajaga ko'tarildi: Termiz va Shimoliy Baqtriya bo'yicha 1926-1928 yillarda Moskva Sharq madaniyati muzeyi xodimlari Denike boshchiligida IX-XII asrlarga mansub Termizshohlar saroyi xarobalarida arxeologik tadqiqot ishlari o'tkazilgan [10:C.6].

Keyingi davrda M.Ye. Masson rahbarligidagi Termiz arxeologik kompleks ekspeditsiyasi (1936–1938) bo'lib, u Termiz va atrof yodgorliklarini "kompleks" yondashuvida o'rganish

an'anasini shakllantirgan [11:C.34]. Shu bilan birga, 1940-yillardan boshlab arxeologiya ilmda institutlashuv (kadrlar siyosati, kafedralar, bo'limlarning tashkil etilishi) kuchaygani natijasida dala tadqiqotlari muntazam rejalashtirilgan ilmiy dastur ko'rinishini oladi. Bronza davri yo'nalishida Sopolli madaniyati yodgorliklari (Sopollitepa, Jarqo'ton) bo'yicha tadqiqotlar alohida adabiyotlar qatlamini tashkil qiladi: Jarqo'ton yodgorligida A. Asqarov rahbarligidagi ekspeditsiya 1969-1973 yillarda qazish ishlarini olib borgani qayd etilgan [12:C.4-5].

Uchinchi qatlam. Mustaqillik davri va xalqaro hamkorlik: metodik modernizatsiya (1991-yillardan hozirgi kungacha). Bu bosqich adabiyotlari ko'p fanli va xalqaro qo'shma dasturlar bilan xarakterlanadi. Termiz bo'yicha 1979-yildan ishlar Sh. R. Pidaev rahbarligida davom etgani, 1993-yildan esa MAFOuz-Baqtriya (Fransiya-O'zbekiston) missiyasi ish boshlagani ko'rsatiladi [13:C.8]. Zamonaviy nashrlarda Termizning antik va islom davri qatlamlari bo'yicha, xususan, kulolchilik ishlab chiqarishi va arxeometrik yondashuvlar bo'yicha ilmiy maqolalar ko'paydi.

Mavzuni tematik tasniflashda yodgorliklar davri (paleolit, qoya san'ati, bronza davri, antik-buddaviylik merosi, islom davri qatlamlari) bo'yicha tadqiqotlarning asosiy yo'nalishlari ajratildi [14:C.4]. Taqqoslashda sovet davri "klassik ekspeditsion" modeli va mustaqillikdan keyingi xalqaro hamkorlik modeli o'rtasidagi farqlar xususan, maqsad, uslub va natijani e'lon qilish, konservatsiya-kommunikatsiyon jihatlari solishtirildi.

3. Tadqiqot natijalari:

Istoriografik tahlil Surxondaryoda madaniy yodgorliklarni ilmiy o'rganish jarayoni quyidagi besh bosqichdagi "burilish nuqtasi" sifatida rivojlanganini ko'rsatdi.

Birinchi bosqich. Dastlabki qaydlar va tavsiflar (XIX asr oxiri – XX asr boshlarigacha). Bu davrda yodgorliklar ko'proq kuzatuv, tavsif va topografik qayd sifatida ilmiy muomalaga kirib bordi. Bu bosqichning asosiy natijasi — keyingi ekspeditsiyalar uchun "obyektlar xaritasi" shakllanishi, ya'ni qaysi hududlarda qadimiy xarobalar va moddiy izlar mavjudligini dastlabki darajada belgilab berildi.

Ikkinchi bosqich. Professional ekspeditsion arxeologiyaga o'tish (1920–1930-yillar). Bu bosqichning muhim belgisi - Surxondaryoda yirik obyektlar bo'yicha rejalashtirilgan ilmiy ishlar boshlangan. 1926–1927 yillarda B.P. Denike ekspeditsiyasi tomonidan Termizda ilk arxeologik izlanishlar boshlab, "tasviriy qaydlar"dan iborat dala tadqiqoti bosqichiga o'tishga yo'l ochgan.

Uchinchi bosqich. Ilmiy "burilish nuqtalari" va yirik kashfiyotlar (1936–1939-yillar). Ushbu davr Surxondaryo yodgorliklarini o'rganishda ikki yirik ilmiy voqea bilan ajralib turadi:

Termiz arxeologik kompleks ekspeditsiyasi (1936–1938): Termiz va atrof yodgorliklari bo'yicha tizimli ekspeditsiyalar amalga oshirildi. Termiz bo'yicha 1936–1938 yillarda M.Ye. Masson rahbarligida Termiz arxeologik kompleks ekspeditsiyasi ilk bor Termiz va atrof yodgorliklarini kompleks, tizimli o'rganishga qaratilgan ilmiy ekspeditsiya sifatida O'rta Osiyo tadqiqotlarining institutsional modelini yaratdi.

Teshiktosh g'ori qazishmalari (1938–1939): A.P. Okladnikov rahbarligidagi ekspeditsiya Boysun tumanidagi Teshik-tosh g'orida izlanish olib borib, Markaziy Osiyo paleoliti va antropologiyasi uchun alohida ahamiyatga ega qatlamlar hamda dafn bilan bog'liq materiallarni ilmiy muomalaga olib kirgan [15] kashfiyotlar (qatlamlar va topilmalar majmuasi) bilan ajralib turadi.

To'rtinchi bosqich. Ilmiy maktablarning shakllanishi, tizimlashuv va kadastrlashtirish (1940–1980-yillar) 1940–1943 yillarda O'zbekistonda arxeologiya bo'yicha kafedra (1940 yilda) va O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Arxeologiya bo'limi (1943 yilda) kabi institutlar shakllanishi natijasida Surxondaryoda ham ekspeditsiyalar barqaror kadrlar va ilmiy rejalashtirish bilan ta'minlana boshladi. Bu davrning asosiy xususiyati - yodgorliklarni inventarizatsiya qilish, "qidiruv, qazish, ilmiy e'lon" zanjirini barqaror yo'lga qo'yish va yirik obyektlarni ko'p mavsumli o'rganishdir. 1979-yildan Sh. R. Pidaev rahbarligida Termizdagi arxeologik qazishmalar va ilmiy talqinlar uzluksiz, ko'p mavsumli dasturga aylanishi, obyektlarning (qal'a, shahriston, rabot) rejalashtirilgan o'rganilishi bilan muhim burilish bo'lgan.

Beshinchi bosqich. Mustaqillik davri: xalqaro hamkorlik va metodik modernizatsiya (1991-yildan - hozirgi kungacha). 1990-yillardan boshlab Surxondaryo yodgorliklarini o'rganishda

xalqaro qo'shma dasturlar va zamonaviy metodlar ulushi oshdi. 1993-yildan MAFOuz–Baqtriya (Fransiya–O'zbekiston) missiyasi boshlanishi va boshqa xalqaro hamkorlik Surxondaryo (xususan, Eski Termiz) tadqiqotiga yangi metodlar, nashrlar va ko'p tarmoqli yondashuvlarni olib kirib, tadqiqotni xalqaro standartlar darajasiga ko'tardi.

2008-yilda Zarautsoyning UNESCO utunjahon merosining nomzodlar ro'yxati (Tentative List) [16]ga kiritilishi qoya san'ati obyektini faqat “tadqiqot obyekti” emas, balki merosni muhofaza qilish va boshqarish doirasida yuritish zarurati kabi ilmiy voqealar yodgorliklarini o'rganishda “burilish nuqtasi” sifatida ximat qilgan. Natijada Surxondaryo yodgorliklari “mahalliy ahamiyatdagi obyektlar” darajasidan chiqib, Markaziy Osiyo arxeologiyasi va paleontologiyasining tayanch nuqtalaridan biriga aylandi. Zamonaviy bosqichning natijaviy belgisi sifatida arxeologik qatlamlarni chuqurroq talqin qilish bilan birga muhofaza, boshqaruv va ilmiy-kommunikatsiya (konservatsiya, muzeylashtirish, raqamli hujjatlashtirish) masalalarining ham kuchayishidir.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, Surxondaryo yodgorliklari tadqiqotida bosqichlar almashinuvi uch omil bilan izohlanadi.

Institutsional omillar. XIX asr oxiri–XX asr boshida ilmiy jamiyatlarning paydo bo'lishi jarayonida 1895-yilda Toshkentda tuzilgan Turkiston arxeologiya havaskorlari to'garagi yodgorliklarni ro'yxatga olish va dastlabki qazishlarga turtki bergan muhit shakllandi. 1940-70 yillarda arxeologiya alohida ilmiy muassasa sifatida mustahkamlangach, ekspeditsiyalar “vaqtinchalik tashabbus”dan uzluksiz ilmiy dasturga aylandi. 2017 yildan O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi tizimida ilmiy-tadqiqot institutlari qayta tashkil etildi.

Siyosiy va huquqiy omillar. Davlat siyosati va boshqaruv ustuvorliklari yodgorliklar bilan ishlash ko'p jihatdan davlatning ilm-fan, madaniyat va hududiy rivojlanish siyosatiga bog'liq (qaysi hududlar o'rganilishi, qaysi obyektlar konservatsiya qilinishi va resurs ajratilishi). O'zbekistonda madaniy merosni muhofaza qilishning ilk huquqiy bazasi sifatida 2001 yilda qabul qilingan “Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risida”gi qonunida ilmiy tadqiqot, muhofaza va foydalanish munosabatlarini huquqiy tartibga soldi. Bu esa “faqat qazish”dan saqlash va boshqaruv bosqichiga o'tishni kuchaytirdi. 1993 yildan O'zbekiston UNESCOning Butunjahon merosi konvensiyasiga ishtirokchi davlat sifatida qo'shilib, merosni xalqaro mezonlarda baholash va boshqarish talablarini kuchaytiradi.

Metodik (ilmiy-uslubiy) omillar. Stratigrafiya va kontekst tamoyili kuchaygani sari “topilma”dan ko'ra “qatlam, joylashuv, funktsiya, davr”ga urg'u berilib, tadqiqotlar chuqurlashadi. Tabiiy fanlar va arxeometriya (keramika, metall, pigment, bioarxeologiya va h.k.) kirib kelishi obyektlarni faqat tarixiy emas, texnologik va xo'jalik tizimi sifatida tahlil qilishga olib keldi. Raqamli metodlar yordamida GIS, masofadan zondlash, fotogrammetriya, 3D qayd kabi usullar paydo bo'lgach, tadqiqot “daladan ilmiy maqolaga” zanjiri bilan cheklanmay, raqamli hujjatlashtirish va monitoring bosqichini ham qamrab oldi.

Xalqaro omillar. Qo'shma ekspeditsiyalar va xalqaro grantlar doirasida 1990-yillardan boshlab xalqaro hamkorlik metodika, uskunalar, nashr madaniyati va ma'lumot almashuvini kuchaytiradi. Eski Termizda MAFOuz–Baqtriya missiyasining 1993-yildan ishlashi shunday “bosqich o'zgartiruvchi” omil sifatida qaraladi. UNESCOga nominatsiya faqat Tentative Listga kiritilgan obyektlar bo'yicha ko'rib chiqiladi, bu esa ilmiy asos (OUV), boshqaruv rejasi, konservatsiya va monitoringni talab qiladi.

4. Xulosalar:

Surxondaryo viloyati hududidagi madaniy yodgorliklarni ilmiy o'rganish jarayoni izchil evolyutsion rivojlanib, dastlabki tavsifiy qayd va ro'yxatga olish amaliyotlaridan boshlab ekspeditsion qazishmalar, stratigrafik-kontekstual tahlil, ko'p fanli (interdisiplinar) rekonstruksiya hamda raqamli hujjatlashtirish va merosni boshqarish bosqichigacha yetib keldi. Tadqiqotlar tarixidagi bosqichlar almashinuvi, bir tomondan, institutsional omillar - ilmiy muassasalar va ekspeditsiyalar faoliyatining barqarorlashuvi, kadrlar tayyorlash va nashr madaniyatining shakllanishi bilan, ikkinchi tomondan, siyosiy-huquqiy muhit - madaniy merosni muhofaza qilishga doir normativ bazaning kuchayishi va davlatning madaniyat-turizm yo'nalishidagi ustuvorliklari bilan chambarchas bog'liq bo'ldi. Zamonaviy davrda metodik yangilanishlar (remote sensing,

geofizik qidiruv, GIS, fotogrammetriya, 3D qayd, arxeometriya) ilmiy dalil bazasini kengaytirib, yodgorlikni endilikda nafaqat “topilma manbai”, balki urbanizatsiyon va landshaft tizim, ishlab chiqarish texnologiyalari, xo‘jalik va madaniy aloqalar tarmog‘ini yorituvchi kompleks tarixiy fenomen sifatida talqin qilish imkonini bermoqda.

Xalqaro hamkorlik esa tadqiqotlarni standartlashtirish, ma‘lumot almashish, laboratoriya tahlillari natijalarni taqdim etish (nashr) madaniyatini kuchaytirib, Surxondaryo yodgorliklarini hududiy ilmiy doiradan xalqaro ilmiy muomalaga olib chiqishda katalizator vazifasini bajarmoqda. Shu bilan birga, zamonaviy bosqichning eng muhim xususiyati - tadqiqot natijalarining konservatsiya, monitoring, risk boshqaruvi va ommaviy kommunikatsiya bilan uzviy bog‘lanib, “tadqiqot, muhofaza, boshqaruv” zanjiriga aylanganidir.

Mazkur xulosalardan kelib chiqib, amaliy tavsiyalar quyidagicha jamlanadi:

Birinchidan, Surxondaryo bo‘yicha yodgorliklar haqidagi dala hisobotlari, arxiv materiallari va muzey fondlari ma‘lumotlarini birlashtiradigan yagona raqamli metama‘lumotlar bazasini shakllantirish, tarixiy bo‘shliqlarni to‘ldirish va takroriy tadqiqot xarajatlarini kamaytiradi.

Ikkinchidan, katta maydonli obyektlarda qazishma strategiyasini oldindan ilmiy asoslash uchun remote sensing, geofizika va GISni muntazam qo‘llash, natijalarni esa standart formatda (3D model, georeferenslangan plan, monitoring protokoli) rasmiylashtirish zarur.

Uchinchidan, arxeometriya va bioarxeologiya yo‘nalishlarini mintaqaviy tadqiqotlar bilan uzviylashtirib, keramika, metall va boshqa materiallar bo‘yicha texnologik tahlillarni kengaytirish maqsadga muvofiq.

To‘rtinchidan, turistik tashriflar va iqlim o‘zgarishi kabi omillar kuchaygan sharoitda yodgorliklar uchun risk tahlili, saqlanish holatini baholash va monitoringni majburiy ilmiy-amaliy komponent sifatida joriy etish kerak.

Beshinchidan, UNESCO jarayonlari bilan bog‘liq obyektlar (masalan, Tentative Listdagi yodgorliklar) bo‘yicha ilmiy dalillashni boshqaruv rejasi, buffer hudud, tashrif buyuruvchilar oqimini boshqarish va konservatsiya choralariga bog‘lagan holda ishlab chiqish lozim. Bu tavsiyalar Surxondaryoda yodgorliklarni o‘rganishning ilmiy natijadorligini oshirish bilan birga, merosni saqlash va undan barqaror foydalanishning institutsional mexanizmlarini mustahkamlaydi.

Iqtiboslar/Сноски/References:

1. <https://www.ub.edu/ERAAUB/index.php/research-lines/asia/archaeological-research-in-ancient-termez-uzbekistan> (<https://www.ub.edu/ERAAUB/index.php/research-lines/asia/archaeological-research-in-ancient-termez-uzbekistan>)
2. Meyendorff, G. Voyage d' Orenbourg a Boukhara fait en 1820. Paris, 1826. (Meuendorff, G. Voyage d' Orenbourg a Boukhara fait en 1820. Paris, 1826.)
3. Тизенгаузен. В. Г. О монетах саманидов. ЗАО, т. VI, отд. I. СПб. 1853. (Tizenhausen. V. G. O monetax samanidov. ЗАО, t. VI, otd. I. SPb. 1853.)
4. Юль, Генри. Очерк географии и истории верховьев Аму-Дарьи. Перевод с англ. О. А. Федченко с дополнениями и примеч. А. П. Федченко, Н. В. Ханькова и Г. Юля. Прилож. к т. IX Известий Русск. геогр. о-ва 1873. СПб., 1873. (Yule, Henry. An Outline of the Geography and History of the Upper Amu Darya. Translated from English by O. A. Fedchenko with additions and notes by A. P. Fedchenko, N. V. Khanykov, and G. Yule. Appendix to Volume IX of the News of the Russian Geographical Islands, 1873. St. Petersburg, 1873)
5. Н.А. Маев. Очерки Бухарскаго ханства. Материалы для статистики Туркестанского края. Вып. V. СПб, 1879. (N.A. Maev. Essays on the Bukhara Khanate. Materials for statistics of the Turkestan region. Issue V. St. Petersburg, 1879.)
6. Логофет Д. Н. В горах и на равнинах Бухары. – СПб., 1913. (Logofet D. N. In the mountains and on the plains of Bukhara. – St. Petersburg, 1913.)

7. Гейер, Иван Иванович (1907). Путеводитель по Туркестану // И.И. Гейер. -1-е изд. - Ташкент : В.М. Ильин, 1901. (Geyer, Ivan Ivanovich (1907). Guide to Turkestan // I.I. Geyer. - 1st ed. - Tashkent: V.M. Ilyin, 1901)
8. Грулев, М. В, Некоторые географико-статистические данные, относящиеся к участку Аму-Дарьи между Чарджуем и Патта-Гиссаром. ИТОРГО, т. II. в I. Т. 1900. (8. Grulev, M. V., Some geographical and statistical data related to the section of the Amu Darya between Chardzhuu and Patta-Gissar. ITORGO, vol. II. in I. T. 1900)
9. Протокол заседания Русского комитета для изучения Средней и Восточной Азии от 24 марта 1914. (Minutes of the meeting of the Russian Committee for the Study of Central and East Asia, March 24, 1914.)
10. Ставиский Б. Четверть века на Кара-Тепе (Записки начальника археологической экспедиции). Ташкент, 1986. (10. Stavisky B. A Quarter of a Century at Kara-Tepe (Notes of the Head of the Archaeological Expedition). Tashkent, 1986.)
11. М.Е. Массон. Термезская археологическая комплексная экспедиция 1936 г. // Труды Узбекского филиала Академии наук СССР. Сер. I: История, археология. – Ташкент: Изд-во УзФАН, 1941. – Вып. 2. (M.E. Masson. Termez Archaeological Complex Expedition of 1936 // Transactions of the Uzbek Branch of the USSR Academy of Sciences. Series I: History, Archaeology. – Tashkent: Publishing House of UzFAN, 1941. – Issue 2.)
12. Аскарлов А.А., Абдуллаев Б.Н. Джаркутан (к проблеме протогородской цивилизации на юге Узбекистана). Ташкент, 1983. (Askarov A.A., Abdullaev B.N. Jarkutan (on the problem of proto-urban civilization in the south of Uzbekistan). Tashkent, 1983.)
13. Археологические исследования в Узбекистане – 2000.- Самарканд, 2001. (13. Archaeological research in Uzbekistan – 2000. - Samarkand, 2001.)
14. Agnese Fusaro, Josep Maria Gurt Esparraguera, Enrique Ariño Gil, Paula Uribe Agudo, Jorge Angás Pajas, Shakir R. Pidaev, Islamic ancient Termez: An active and long-established ceramic manufacturing centre along the silk road. *Archaeological Research in Asia*, Volume 31, 2022, ,ISSN 2352-2267, <https://doi.org/10.1016/j.ara.2022.100375>.
15. <https://sites.harvard.edu/aspr/2025/10/03/teshik-tash-cave-uzbekistan-middle-paleolithic-cccupation-and-burials-1938-39/>
16. <https://whc.unesco.org/en/tentativelists/5299/>

ЎТМИШГА НАЗАР

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ
LOOK TO THE PAST

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000